

“DOYRA YAKKANAVOZLIGI VA JO‘RNAVOZLIKNING MAQOM IJROCHILIGIDAGI MUHIM AHMIYATI”

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI “Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrası
dotsenti **Samadov Rahmatulla Sunattullayevich**

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq allomalarining musiqa haqidagi fikrlari va g‘arb olimlarining tadqiqot kuzatuvlari haqida yozilgan. Maqom usullariga misollar keltirilgan va unda takt-ritm o‘lchovlari namunalarini ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek mazkur maqolada bolalarga yoshlikdanoq yaxshi musiqalarni eshittirish orqali ularni kelgusida yetuk ijodkor, nozik did sohibi bo‘lishini ta‘minlashga oid ko‘rsatmalar atroflicha aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ritm, usul, kuy, manbalar, Zarbul qadim, maqom, doyra, jo‘rnavozlik, musiqa san‘ati;

Аннотация: В данной статье рассматриваются взгляды восточных ученых на музыку и исследовательские наблюдения западных ученых. Приведены примеры методов макамов, а также можно наблюдать образцы ритмико-метрических структур. Кроме того, в статье кратко изложены рекомендации, как прослушивание хорошей музыки с раннего возраста способствует воспитанию будущих творцов с утонченным вкусом.

Ключевые слова: ритм, метод, мелодия, источники, Зарбул Кадим, макам, дойра, концертмейстер, школа наставников, искусство музыки.

Abstract: This article discusses the views of Eastern scholars on music and the research observations of Western scientists. Examples of maqom methods are provided, and we can also observe samples of rhythmic-metric patterns. Additionally, the article briefly touches upon guidelines on how listening to good music from an early age can help children become mature creators and possess a refined sense of taste in the future. The role of "jo‘rnavozlik" as a concertmaster or music conductor is also mentioned.

Keywords: method, rhythm, melody, sources, Zarbul Qadim, maqom, doyra, concertmaster, teacher’s school, music Art.

O‘tmishda musiqaviy, ritm o‘lchovlari turlicha ma’noda ishlatilganligi ma’lumdir. Masalan doira va nog‘ora usullari tarzida bo‘ladigan bo‘lsa “bum-baka-bum” yoki “tan, tana, tanan” deb ifodalanadi.

Ritm o‘lchovidagi kirish ruknlar kuylarning ritmik asosini ifodalashda ham ishlatilgan. Har qanday kuyni ritm o‘lchovi ruknlari asosida xirgoyi qilib kuylash mumkin. Shu ruknlar bilan ashulalarga aytiladigan she’r matnlari tanlab olinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili davomida shuni guvohi bo‘ldikki, manbalarda qayd etilishicha, Navoiy davrida doira va nog‘ora usullari juda ko‘p yaratilgan ekan. Hatto nog‘orachilar bir-birlariga o‘z fikrlarini shu soz orqali anglata olgan ekanlar va savol javob o‘yinlari ham qilgan ekanlar. Bugungi kunda mana shu an’ana zarbli cholg‘u ijrochilari tomonidan ham amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Yosh sozandalar o‘z texnik imkoniyati va mahoratini oshirishda turli to‘y-tadbir shodiyona yoki biror davrada to‘planib, “Doira bazm” deb nomlanuvchi kechalarning bo‘lib o‘tishi buning dalilidir.

Yozma manbalarda ko‘rsatilishicha, birinchi yaratilgan musiqa ritmi “Zarbul qadim” (Qadimiy zarb) deb ataladi. Bu ritm go‘yo inson tanasidagi tomir urishidan olingan bo‘lib, juda soda “tan-tan”shaklida bo‘lgan ekan. So‘ngra murakkabroq shakllari yuzaga kela boshlaydi. Keyinchalik bu ritmlar mustaqil doira usullari tarzida ajrab chiqqan. Demak, musiqa asarlari, sodda usuldan, sekin astalik bilan murakkablashib, ularning diapazoni kengaya boshlagan ekan.

Tadqiqot metodologiyasi bo‘lgan usul haqida to‘xtalar ekanmiz, asli u nima ekanligiga ta’rif berishimiz zarur. Arab tilida “usul” (birligi “asl”) asos poydevor degani. Darxaqiqat, usul parda bilan bir qatorda kuy, musiqaning asosiy poydevori, maqom tafakkurining boshlang‘ich nuqtalaridan biridir. Kuy navlarini belgilashda, ularni toifalarga ajratishda aynan usul hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat etadi. Demak, usul nafaqat kuy harakatini belgilovchi, balki uni tartib hamda nizomga keltiruvchi jihat bo‘lib maydonga chiqadi.

Sarahborni misol qilib oladigan bo‘lsak, zarbul qadim usulida bu kuy aytilganda og‘ir, saltobatli ulug‘vorlik tusini oladi. Xuddi shuning soqiynoma va uforisida esa usulning ta’sirida shod va ko‘tarinkilik kayfiyati baxsh uradi. Tarona usullariga olinganda yengil, vaziyatni tez-tez almashtirib turish kayfiyati hukm surganini ko‘ramiz.

Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov “Maqomot” kitobida usul haqida to‘xtalar ekan: “Doyra usullari, eng avvalo, jo‘rnavozlik vazifasini bajaradi. Kuy

harakatining erkin oqimida, uning tarkibida doyra jo'rligidagi vazn qolipining saqlanib turishi muhim ahamiyatga ega. Chunki bunda doyra usuli-mezon (qolip, andoza, ulgi), uning zaminidagi zarblar oqimi (iyqo izmi) esa erkinlik timsoli. Har qanday ijod turi ma'lum ehtiyoj, (ya'ni qoida, tartib, andoza, qolip) va erkinlikning uyg'unlashuvini nazarda tutadi. Shu tariqa kuyning vazn asosida ijod doirasiga undovchi mushtarak qarama-qarshilik yuzaga keladi. ” deya ta'rif berganini ko'rishimiz mumkin. Aslida ham ustoz sozanda yoki hofiz uchun uning yonida usul chaladigan hamnavoz ishonchli tayanchi bo'lishi zarur. Ana shundagina kuy erkin ijodiy parvoz etib, mezonni tartib bilan qat'iy ushlab turuvchi hamnafas sozi doyra bo'ladi.

Usul atamaları mnematik belgilar shaklida ifodalanishi odat tusiga kirgani bejiz emas. Masalan, Buxoro uslubida “bum-taq”, “ta-qa”, “ta-qo”, deb yuritilsa, Xorazmda esa “gul”-“taq”, “ta-qa”, “ta-qo” deb aytiladi. Bizga ma'lumki, “bum”-doyraning o'rtasiga urilsa, “bak”- chekkarog'iga uriladi. Zarbning birinchisi biroz quyuproq tovush bersa, ikkinchi tovush esa unga nisbatan jarangliroq sadolanadi. Pauza (to'xtash) belgisi Buxoroda “ist” deyildadi.

Tahlil va natijalar davomida Buxoro Shashmaqomiga usul jihatdan nazar salsak, maqomlarning turkumlarini yaratilishida ularning cholg'u qismlari va sho'balarda usullar dastlab soddaroq bo'lib, keyinchalik ijro etiladigan qismlarda murakkab tus olganini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol qilib oladigan bo'lsak, Tasnif va Tarjelarda ancha soddaroq bo'lsa, Muxammas va Saqillarda murakkabroq, ya'ni 16, 24 takti o'z ichiga oladi. Shu qatorida Gardun yo'llari ham juda murakkab doyra usuli qatoriga kiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'tmishda XIII-XVII asrlarda yozilgan manbalarda aytilishicha, Garduniya, yoki Gardoniya nomlari bilan ham atalgan maqom sho'balari haqida mulohazalar bor. Quyida mazkur Gardunning usul va takt ritm o'lchovini ko'rishimiz mumkin:

Gardun



Ko'rishimiz mumkinki, Gardunning takt-ritm o'lchovi $8/4$ ($2/4+3/4+3/4$) doyra usuli. Maqom asoslariga xos ratsionalizmning yana bir ko'rinishi oddiy usullar birikmasida tuzilgan murakkab usullarning yuzaga kelishidir. Uning raqamli ramzlari- “du” (ikki), “se” (uch), “chor” (to'rt), “muhammas (besh) usul deb ham yuritilar ekan. Bunga misol tariqasida Shashmaqom cholg'u bo'limidagi Gardun misolida ya'ni “**Se usul**” ni ko'rdik.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy: “Shodlik oshiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozanda - ularning har ikkisi hissiyotga berilgan kishilar va ahli

dardlarga jon fido qiladilar. Modomiki, ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, tinglovchining hayoti unga fido bo'lsa, nima qilibdi? Axir, ko'ngil xush oxangdan quvvat, rux, esa xush ovozdan oziq, oladi. Yoqimli ovoz, mayorat bilan kuylagan xonandadan rux, olgan dard ahlining o'ti chekinadi. Sozandaning kuyi dardlirok, ijro etilsa, uning xonishi g'amboda yuraklarga taskin bo'ladi", deb yozgan edi.

Siz-u bizning zamondoshimiz bo'lgan Yunus Rajabiy "Men o'zimizning o'zbek xalq ohanglaridan hech qaysi millat ohanglarini ustun qo'ya olmayman", deb

yozganida ming bora haq edi. Musiqamizdagi joziba, ta'sirchanlik, sehrni hech bir musiqaga almashtirgini kelmaydi.

Xulosa va takliflarim haqida so'z yuritadigan bo'lsak, men o'zinning ijodiy tajribalarimdan kelib chiqib, bir qat'iy xulosaga kelganman. Mana shu umrim davomida qanchadan-qancha muxlislar bilan, maqom tinglovchilari bilan yuzma yuz bo'lganman. Ana shunday yuzma-yuz bo'lgan damlar, qarshimda kayfiyatsiz, qovog'idan qor yog'ib turgan odamlarni doira sadosidan ta'sirlanib, yuzlaridan nur yog'ilib, ko'zlaridan olov uchqunlari sachrab xursand bo'lganlarini ko'rganman. Shu tajribalar orqali doirada har qanday inson psixikasiga kuchli ta'sir qilish qobiliyati borligini sezganman.

Barmoqlarning ko'z ilg'amas tezlikdagi harakatiga mahliyo bo'lib qolgan tomoshabin o'z ixtiyoridan tashqarida sozanda tomon siljib kelayotganligini yuzlab

marotaba uchratganman. O'zga har qanday kuchli ta'sirlardan musiqaning ta'sir

kuchi qudratlidir. Bir vaqtlar Yaponiyada shunday tajriba o'tkazilgan edi. Tajribaga

asosan, emizikli ayollarning 120 nafari ikki guruhga bo'linib, ikki hafta davomida musiqa terapiyasi seansida ishtirok etdi. Birinchi guruhga klassik musiqa eshittiriladi. Ikkinchi guruhdagi ayollarga pop musiqasi. Natijada, birinchi guruhdagi ayollarda ona suti yigirma foizga oshadi. Ikkinchi guruhdagi emizikli ayollarning suti esa ellik foizga kamayganligi ma'lum bo'ladi. Bugungi kunda musiqani nafaqat insonga, balki jamiki borliqqa ta'sir qilishi fanda o'z isbotini topgan. Yaponiyada yana bir tajriba o'tkazilgan. Yaponiyalik olim Emoto Leasoro suvning musiqiy taassurotini suratga olishga erishgan. U suvga musiqa quyib berdi va musiqa tugashi ila zudlik bilan suvni muzlatib mikroskop orqali suvdagi kristallarni tekshirdi. Ro'k musiqasi eshittirilgan suvda hosil bo'lgan kristallar go'zallikdan butkul mahrum edi...

Har qanday ilm tajriba mahsulidir. Ko‘pchiligimizda odam ongi, ruhiga, qalbi,

jismiga, kayfiyatiga musiqa ta‘sir kuchini his qilish, xulosalar chiqarishga yetarlicha bilim-ko‘nikma yo‘q. Lo‘nda qilib aytganda, ilm ahlida tajriba, tajribalilarida bu ilmga qaytishga xohish-iroda yo‘q. Shu sabab ummon bo‘lib yotgan ilm xazinasini chetlab o‘tishlar hamon davom etmoqda. Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston kabi Sharq mamlakatlaridagi har o‘n xonadondan birining uyida, albatta, uchratishingiz mumkin. Umuman, musiqa san‘ati, odam iymone‘tiqodining mustahkam, aqliy barkamollikning poydevori, nozik didning shakllanishi, o‘z zamini, millatiga sodiq o‘z oilasiga, qarindosh-urug‘lariga, yon atrofida qilarga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynovchi sohadir. Bog‘cha bolalariga ovqatlanish, o‘ynash vaqtlarida ularning asabiga tegmaydigan tarzda milliy musiqa kuylar eshittirib borilsa, nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi. Chunki bolalarda xodisalarni tez o‘zlashtirish qobiliyati mujassam bo‘lib, ular o‘ta ziyrak “ijodkor”lardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ikromov I. Doira darsligi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san‘at” 1997-yil.
2. Islomov D. Maxsus cholg‘u. Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016-yil.
3. Samadov R. Zarblar xazinasini. Toshkent, 2012-yil.
4. Samadov R. An‘anaviy doira ijrochiligi. Toshkent, 2005- yil.
5. Kamolxo‘jaev O., Leviyev A. Doira darsligi. Toshkent, 1985.
6. Otanazar Matyoqubov. “Maqomot” musiqa nashriyoti T., 2004.
7. Isxoq Rajabov. Maqomlar. Toshkent, 2006.
8. Muminova Guzal Igamovna. (2024). TEACHING THE PERFORMANCE OF MAQAM INSTRUMENTAL MUSIC: REFLECTIONS AND SUGGESTIONS. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 6(11), 220–223. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume06Issue11-14>
9. Muminova, G. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONNING SOG‘LOM AVLODI – SOG‘LOM OILADA SHAKLLANADI. *Talqin Va Tadqiqotlar*. <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2643>
10. Muminova G. HONORARY WOMEN IN UZBEK ART //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 244-247.
11. Муминова Г. ВОПРОС ОБ ОЦИФРОВКЕ ХОРЕЗМСКИХ МАКОМОВ ЗАПЕЧАТАННЫХ В ПЕРФОКАРТАХ //Journal of science-

innovative research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 532-535.
<https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/62710>

12. Муминова Гузал Игамовна О ВКЛАДЕ ФАКИРИ В БУДУЩЕЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА КАК ЛИЧНОСТИ И КАК ПОЭТА // Проблемы Науки. 2021. №4 (161). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-uklade-fakiri-v-budushee-muzykalnogo-iskusstva-kak-lichnosti-i-kak-poeta>